



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

SHAHARLARNING YASHASH UCHUN QULAYLIK INDEKSI

Yoqubov Olimjon Yoqub o‘g‘li

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

e-mail: olimjonyoqubov21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi” O‘zbekistonda ilk bor ishlab chiqilgan va bayon etilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ushbu indeks orqali dastlab aniqlangan 4 ta shaharning reyting ballari va Toshkent shahri misolida “Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi” muhim kategoriya ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi”, funksiya, indikator guruhi, Institute for Urban Strategies, Toshkent, Samarqand, Andijon va Shahrisabz.

URBAN CONVENIENCE INDEX

Yokubov Olimjon

Abstract: This article is the first of its kind in Uzbekistan. In addition, the scores of the 4 cities initially identified in Uzbekistan by this index, as well as the example of the city of Tashkent, show that the "Urban Welfare Index" is an important category.

Keywords: “Urban Convenience Index”, function, indicator group, Institute for Urban Strategies, Tashkent, Samarkand, Andijan and Shahrisabz.

So‘nggi yillarda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu-mamlakatning urbanizatsiyalashganlik darajasi hisoblanmoqda. Bu holat qaysi bir mamlakat bo‘lmasin shaharlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor berishi lozimligini ko‘rsatmoqda. Natijada davlatlar o‘zlarining shaharlarini qanday qilib rivojlantirish, shaharlarini hozirgi holati qayday darjada, shahardagi qaysi soha kamchiliklarga ega-yu, qaysi soha jadal rivojlanayotgani haqida ma‘lumotni qanday olish mumkinligi masalasi dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Ana shunday vazifani yechimini esa **“Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi”** metodologiyasi yordamida amalga oshirish mumkin. 2022 yil yanvarda qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida: “shaharlardagi aholining turmush tarsi qulayligini baholovchi “Shaharlar qulayligi” indeksini joriy etish” vazifasi belgilangan [3].

Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi mamlakatda urbanizatsiyani rivojlantirish bo'yicha qilinadigan ishlarni tizimlashtiradi, shaharlardagi qaysi bir sohadagi muammolarini va yutuq tomonlarini ko'rsatib beradi.

Dunyoda shaharlarni reytingini aniqlash borasida bir qancha tashkilotlar shug'ullansa-da, lekin ularning aksariyat qismi shaharni ma'lum bir jihatinigina o'rganadi va shu asosida reyting tuzadi. Bu esa shaharlarni aholi yashashi uchun qulayligini to'liq ochib bera olmaydi.

Shaharlarni qulaylik reytingini aniqlashda kompleks yondashilganlik asosida har yili shaharlar reytingini e'lon qiladigan Institute for Urban Strategies universiteti tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezonlari ancha mukammal hisoblanadi. Lekin ushbu baholash mezonlarining ayrim bandleri Respublikamiz shaharlarini yashash uchun qulaylik darajasini baholashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, ular 6 ta funksiya bo'yicha 67 ta indikatorni birlashtirgan holda, shaharlarni reytingini tuzadilar [1]. Bu esa sohalar bo'yicha ko'rsatkichlarni, ya'ni natijalarni umumlashishiga olib keladi. Mazkur metodikada faqat statistik ma'lumotlar asosida shaharlarni reytingini aniqlashadi. Bu esa faqatgina shaharning har yilgi reytingini aniqlab beradi xolos.

Shuning uchun yuqoridagi metodikadan farqli o'laroq, o'zgacha yondoshgan va baholash me'zonlarini takomillashtirgan holda, har bir ko'rsatkich bo'yicha ma'lum bir chegaralarni qo'ngan tarzda shaharlar reytingini tuzish maqsadga muvofiq hisoblandi. Natijada, bu bilan biz haqiqiy shaharlar reytingini aniqlashga, hamda shaharning kamchilik va yutuq tomonlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.


Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi O'zbekistondagi shahar aholi punktlarini aholi yashashi uchun qulaylik darajasini, kamchilik va yutuq tomonlarini ko'rsatib beruvchi muhim kategoriya hisoblanadi. "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi" 6 ta funksiya, 23 ta indikator guruhi va 75 ta indikator (ko'rsatkich)dan iborat [2].

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Urbanizatsiya va uy-joy qurilishini rivojlantirish departamenti bilan hamkorlikda dastlab Toshkent, Samarqand, Andijon va Shahrisabz shaharlarining "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi" aniqlandi va ular ushbu indeksda quydagicha ballga ega bo'ldi:

- Toshkent – 59,14
- Samarqand – 50,34
- Andijon – 43,26
- Shahrisabz – 40,1

Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksining shaharlarga baho beribgina qolmay balki, undagi salbiy va ijobiy tomonlarini ham ko'rsatib bera oladi. Masalan, Toshkent shahrini "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi" bo'yicha

ko'rsatkichlari va shaharga berilgan ballni quyidagi diagrammadan ko'rish mumkin (1-diagramma).



1-diagramma. Toshkent shaharining yashash uchun qulaylik indeksi

1-diagrammada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra shahardagi eng yuqori ballarni "Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar" (4,3 ball), "Biznes yuritishning qulayligi" (4,24 ball) va "Maktabgacha ta'lim muassasalari" (3,96 ball) va eng past ballarni "Avtotransport vositalari ishtirokida sodir etilgan halokatlardan kutiladigan xavf-xatar" (-2,11 ball), "Tabiiy muhiting yashillik darajasi" (0,09 ball), "Avtomobil yo'llaridan foydalanish qulayligi" (1,07 ball) indikator guruhlari qayd etdi. Bu holatlar esa shaharni rivojlantirish uchun aynan eng past ball to'plagan jihatlarga katta ahamiyat berish kerakligini, "Avtotransport vositalari ishtirokida sodir etilgan halokatlardan kutiladigan xavf-xatar" indikator guruhidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqib tezda chora ko'rish kerakligini ko'rsatmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda, "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi" orqali biz shaharlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lamiz. Ular:

Birinchidan, mamlakatdagi qaysi shahar aholi yashashi uchun eng qulayligi aniqlanishidir. Bu orqali mamlakatdagi aholi nima uchun shu shaharga intilayotganini ko'rsatib berish bilan birga, shu shahar haqida ma'lumotga ega bo'lmagan aholi uchun ham borib yashashi uchun ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, shaharlarni kompleks tadqiq etadi va yutuq va kamchilik tomonlarini ko'rsatib beradi. Bu orqali boshqacha qilib aytganda shaharning "ko'zgusi" bo'la olishidir.

Uchinchidan, shaharlarni rivojlantirishda strategik yo'nalishni belgilab beradi. Natijada qaysi bir shahar o'zidagi kamchiliklarni aniqlamoqchi va ularni bartaraf etmoqchi bo'lsa, "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi"dan ko'rib olish imkoniyati vujudga keladi. Chunki, "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi"da berilgan minimal, o'rtacha va maksimal ko'rsatkichlar ular uchun qiyoslash vazifasini belgilab beradi.

To'rtinchidan, "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi" shaharlar uchun o'ziga xos "Konstitutsiya" bo'lib, u o'zining indikator ko'rsatkichlari orqali shahardagi muvozanatni tartibga solib turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda "Shaharlarni yashash uchun qulaylik indeksi"ni joriy qilinishi, 2030-yilgacha O'zbekistonda urbanizatsiya darajasini 60 % ga yetkazish uchun muhim dastur ul-amal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Heizo Takenaka et al., Global power city index. Toranomon 3-5-1, Minato-ku, Tokyo 105-0001 JAPAN 2021.
5. O.Y.Yoqubov "Hisor turistik zonasini barpo etish istiqbollari" magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.
6. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". PF-60-sonli farmoni. 2022.